

**NAZMIY ASARLAR TARJIMASIDA BADIY UNSURLARNING
SAQLANISH DARAJASI (Zulfiya she'rlarining ingliz
tiliga tarjimalari misolida)**

Chaman Jonuzaqova Murodilla qizi

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Nazmiy asarlar bir vaqtning o'zida tuzilish va badiiyat jihatdan bir qadar murakkab asarlar sanaladi. Ular qator mazmun va shaklga bog'liq badiiy unsurlardan tarkib topadi. Maqolada bu unsurlarning ba'zi asosiylarini olib, ularning tarjimada qayta uzatilishini ko'rib chiqamiz. Vazn, qofiya, g'oya va ritmni tahlil qilish bilan birga badiiy topilmalarning qayta jonlantirilishiga e'tibor qaratiladi. Tahlil uchun shoira Zulfiya she'rlari obyekt sifatida tanlandi.

Kalit so'zlar. nazmiy asar, she'riy tarjima, vazn, qofiya, g'oya, ritm, badiiy topilma, Shakl, mazmun, badiiy unsur.

Abstract: Poems are considered somewhat complex in terms of structure and artistry at the same time. They consist of a number of artistic elements related to content and form. In the article, we will take some of the main elements and consider their retransmission in translation. Emphasis is placed on the revival of artistic findings along with the analysis of meter, rhyme, idea, and rhythm. Poems of poetess Zulfiya were chosen as an object for analysis.

Keywords. poetic work, poetic translation, meter, rhyme, idea, rhythm, literary finding, form, content, artistic element.

She'r, adabiyotning eng nozik va estetik shakllaridan biri bo'lib, u o'zining ritmi, ohanglari va tasviriy ifodalari bilan ajralib turadi. She'rning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ma'lum bir ritm va vazn tuzilishi mavjud bo'lishi mumkin. Bu, o'quvchiga she'rni o'qish jarayonida ohangdorlik hissini beradi, tasvirlar va metaforalar keng qo'llaniladi. Bu, o'quvchining tasavvurini kengaytiradi va his-tuyg'ularni chuqurroq anglashga yordam beradi, muallifning chuqur ichki kechinmalarini ifodalaydi.

Abdulla Qahhor o'zining “Tarjimachilik tashvishlari” maqolasida shunday deydi: "... Chukovski tarjima san'atini sehrgarlik deb ataganda, haq edi. Lekin, deb davom etadi u, agar tarjima so'zlarning ma'nosinigina emas, ular ifodalagan eng nozik tuyg'ular va kechinmalarni ham yetkazib berolsagina, chinakam sehrgarlik bo'lib hisoblanadi. Ha, har bir yirik san'atkor milliy madaniyatni jahon adabiyotining durdonalari bilan boyitishga o'zining butun kuch-quvvatini sarflashi kerak. Badiiy

tarjima yozuvchining o‘zi uchun ham katta mahorat maktabi bo‘ladi.”¹ She‘riy tarjimaning, umumiy olganda nazmiy adabiyotning ahamiyatini hisobga oladigan bo‘lsak, ularni turli tillarga tarjima qilish katta madaniy almashunuv deganidir. Bunda she‘riy asarning tarjimada ham aynan qayta yaralishi ahamiyatli.

Adabiyotshunoslar adabiy jarayonlarni, asarlar va mualliflarni tahlil qilish chog‘ida ham obyekt sifatida aynan tarjima asarlarga tayanadi. Bu shuni anglatadiki, tarjimada adekvatlik faqatgina ma‘lum bir asar mohiyatining tushunilishi bilan emas, balki butun bir adabiy nazariyaning adekvatligi bilan bog‘lanib ketadi. Abdulla Qahhor o‘z maqolasida Chukovskiydan shunday iqtibos keltiradi: “Adabiy tanqidchilar mualliflar haqida gapirashadi-yu, tarjimonga kelganda miq etishmaydi, vaholanki, ular tarjima to‘g‘ri va yaxshi bo‘lgan chog‘dagina muallif haqida mulohaza yuritishlari mumkin”² Shu sababdan asarning anglanishida tarjimonning ahamiyatini she‘riy asarlar misolida ochib bermoqchimiz.

She‘r, adabiyotning eng nozik va estetik shakllaridan biri bo‘lib, u o‘zining ritmi, ohanglari va tasviriy ifodalari bilan ajralib turadi. Adabiyotning bunday o‘ziga xos va estetik shakli bir nechta muhim elementlardan iborat. Ushbu elementlar she‘rning mazmuni va tuzilishini belgilaydi. Ritmik tuzilish, tasviriylik, emotsional ta‘sir ham nazmning muhim xususiyatlaridandir. Quyida Zulfiya ijodidan she‘riy parcha keltiramiz:

<p><i>Hamon e‘tiqodim – haqiqat, haqdir, So‘zlayman yuzimni tutib Ka‘baga. Yemira olmaydi o‘tkinchi taqdir, Osuda o‘tadi ruhim abadga.</i></p>	<p><i>My faith is still the truth, the verity, Looking towards Kaaba I give a speech. Temporal fate can’t wrack me in reality, To eternity my soul will gently reach.³</i></p>
--	---

E‘tiborga olish lozimki, tarjimon badiiy unsurlarning eng muhim shakliy ko‘rinishi bo‘lgan qofiyani samarali saqlay olgan. Qofiyani a-b-a-b shaklida saqlanishi she‘rning ravon o‘qilishiga va asliyatga yaqinligida o‘rin tutmoqda. Vaznga kelsak, asliyat 11 bo‘g‘inli barmoq vaznida yozilgan. Ingliz tilida vazn (meter) tushunchasi bir muncha farq qilsada, tarjimon bu xususiyatni ham 10 bo‘g‘inlik misralar orqali saqlab qolgan. Bu esa she‘r ritmining ham saqlanishiga yordam bergan. G‘oya borasida, she‘r g‘oyasi deyarli so‘zma so‘z tarjima qilingan deya olamiz. Asliyat *haqiqat* va *haq* so‘zlarining yonma yon kelishi ularning yaqin va farqli ma‘nolarini urg‘ulaydi. *Haq*

¹<https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/sovet-davri-matbuoti/abdulla-qahhor-tarjimachilik-tashvishlari-1962>

³ (Translated by Aazam Abidov)<http://azamabidov.uz>

soʻzi oʻzbek va umimiy olganda mumtoz adabiyotda diniy konseptni ham ifodalab kellihi mumkin.

<p><i>Eʼzozlar, ardogʻlar uchun tashakkur,⁴ Asli Siz oftobim, men ziyosiman. Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur, Baxtim shul – Oʻzbekning Zulfiyasiman.</i></p>	<p><i>Thank you for respect, for warm emotion, In fact, you are my sun, I am sunrays, Be always happy, free, full of devotion, Iʼm Uzbeksʼ Zulfia, Iʼm blessed with grace.</i></p>
--	--

Keyingi toʻrtlikda ham qofiyaning ravon qayta jonlanganini koʻramiz. Vazn esa, asliyat 11 boʻgʻinli turoqda tarjimada esa boʻgʻinlar 10-10-11-11 shaklida keltirilganini koʻramiz. Lekin 11 boʻgʻinli misralarda qofiyalangan soʻzlarning qisqa talaffuz ohangi yordamida bu oʻzgarish ritmni saqlashga deyarli halaqit qilmagan. Sheʼr gʻoyasi tarjimada bir nechta modulyatsiyalar ishlatilganiga qaramasdan tugal yetqazilgan.

Tahlil etilgan misollardan anglash qiyin emaski, sheʼriy tarjimada tarjimonning nazariy bilimlari va ijodkorlik qobiliyati deyarli teng ahamiyatli. Tarjimon sheʼrni soʻzma soʻz xatosiz, hatto eng adekvat ekvivalentlar bilan tarjima qilib berishi mumkin, ammo sheʼr asosini tashkil qiluvchi shakliy va mazmuniy unsurlar saqlanmasa, sheʼr taʼsirini bir qadar yoʻqotadi. Asliyatning musiqiyiligini saqlab qolish uchun, baʼzan soʻzlarni oʻzgartirishga sheʼrning ravon oʻqilishi uchun muhimdir. Madaniy va tarixiy kontekstni hisobga olish oʻquvchiga nazmiy asarning asl maʼnosini va muallifning niyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tarjimon sheʼrni tarjima qilishda oʻzini muallifning ovozi sifatida koʻradi.

Qahorning Chukovskiydan keltirgan yana bir iqtibosida shunday deyiladi: “Aftidan, sheʼr tarjimasida tarjimonning chet tilini bilishi emas, rus sheʼrini gʻoyat nozik tushunishi hal qiluvchi rol oʻynaydi”.⁵ Yaʼni Chukovskiy sheʼrdagi chuqur hissiy ifodani oʻquvchiga yetqaza olish qobiliyatini birinchi oʻringa olib chiqadi. Xulosa qilib aytish mumkinki, sheʼr tarjimasida ijodiy jarayon. Bunday tarjimaning tahlili mujallif va tarjimonning hissiy dunyosini ham tahlil etishni talab qiladi. Bu sanʼat va ilmning birlashuvidir.

⁴ <https://xs.uz/uz/post/bakhtim-shul-ozbekning-zulfiyasiman>

⁵ <https://www.ziyouz.com>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergash Ochilov. Badiiy tarjima masalalari. T. 2014
2. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/sovet-davri-matbuoti/abdulla-qahhor-tarjimachilik-tashvishlari-1962>
3. <https://xs.uz/uz/>
4. <https://www.ziyouz.com>
5. <http://azamabidov.uz>